



Miraziz RAUFOV,

Toshkent davlat yuridik universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: m.raufov@tsul.uz

O'zDJTU fff.d (PhD) Z. Abdusamadov taqrizi asosida

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MUQOBILSIZ BIRLIKALAR VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz, o'zbek tillarida muqobilsiz birliklar tushunchasi va ularning tasniflanishi bilan bir qatorda o'zbek tilidan ingliz tiliga yoxud ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish yo'llari, usullari haqidagi nazariy va amaliy jihatlarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari muqobilsiz birliklar tarjimasiga doir jahonning hamda o'zbek tarjimashunos olimlarining fikrlari, qarashlari ham o'rganilan bo'lib, mazkur maqolada keltirib o'tilgan. Ikki tilda (ingliz va o'zbek tillari) muqobilsiz birliklarning tarjimalaridan misollar keltirilgan hamda qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: muqobilsiz birlik, ekvivalentlik, tarjima nazariyasi, realiyalar, transkripsiya, transliteratsiya, tasvirlash

NON-ALTERNATIVE UNITS IN UZBEK AND ENGLISH AND THEIR SPECIFIC CHARACTERISTICS

Аннотация

In this article, along with the concept of non-alternative units in English and Uzbek languages and their classification, it takes into account the theoretical and practical aspects of the ways and methods of translation from Uzbek to English or from English to Uzbek. In addition, the opinions and views of international and Uzbek translation scholars regarding the translation of non-alternative units have been studied and cited in this article. Examples of translations of non-alternative units in two languages (English and Uzbek) are given and a comparative analysis is made.

Key words: non-alternative unity, equivalence, theory of translation, realities, transcription, transliteration, description

БЕЗЭКВИВАЛЕНТНЫЕ ЕДИНИЦЫ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ И ИХ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация

В данной статье представлен анализ понятия безэквивалентных единиц в английском и узбекском языках, а также их классификации и методов перевода между указанными языковыми системами. Также обсуждаются взгляды и мнения как международных, так и узбекских научных-переводчиков относительно проблематики перевода безальтернативных единиц. В статье приводятся примеры перевода таких единиц на оба языка – английский и узбекский – а также проводится сравнительный анализ данных переводов.

Ключевые слова: безэквивалентные единицы, эквивалентность, теория перевода, реалия, транскрипция, транслитерация, описание.

Kirish. Bilamizki, til har qanday jamiyatning taraqqiy etganligini namoyon etuvchi ko'zgudir. Xalqning millat darajasiga yetishida, shu xalqni tashkil etuvchi insonlarning orzu-maqsadlari yo'lida birlashishishida, shubhasiz, tilning o'rni muhimdir. Mustaqil O'zbekistonning istiqbolli, uning taraqqiyoti va ravnaqi, buyuk davlatga aylanishi – ilm-fan rivoji va texnik takomiliga, yangi jamiyat asoslarini barpo qilishga safarbar qilgan xalqimizning ma'nnaviy-axloqiy barkamolligi, aqliy salohiyatining yetukligiga bevosita bog'liqdir.

2023-yil 29-may kuni Prezidentimizning PQ-38 sonli "Yoshlar uchun ming kitob" loyihasini amalga oshirish choratadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi tashkil etildi. Ushbu agentlikka bir qancha asosiy vazifalar yuklangan bo'lib, asosiy vazifalaridan biri sifatida "davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish uslubiyotlarini yaratish hamda ushbu yo'nalishda mutaxassislarining malakasini oshirishda ko'maklashish" belgilandi[1]. Mazkur belgilangan vazifalardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, o'zga tillardan o'zbek tiliga yoki ona tilimizdan jahon tillariga tarjima qilish orqali ushbu belgilangan maqsadlarga erishish mumkin. Shu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, yurtimizda so'nggi yillarda chet tili, tarjima sohalariga bo'lgan e'tibor yaqqol ko'zga

tashlanmoqda. Jumladan, Mazkur Qarorda 1000 ta xorijiy tilda yozilgan kitob o'zbek tiliga tarjima qilinishi belgilandi. Bu boroda esa tarjimaga katta ehtiyoj seziladi.

Xo'sh, tarjima aslida nima?

Tarjima - biror ijodiy ishning (kitoblardan tortib gapirayotgan nutqimizgacha) qayta yaralishidir. Tarjimada asl tildagi ruhiyatni, mazmun-mohiyatini anglash, asliyatdagি turli birliklarning leksik, grammatik, fonetik, frazeologik vazifalarini anglab yetish, tarjima qilinayotgan tilda esa ularga har tomonlama mos keladigan ekvivalentlar topish juda murakkab jarayon hisoblanadi. Tarjimashunos olim L. S. Barxudarov esa bu holatni quyidagicha ta'riflaydi: "Tarjimada ikki turli xil tillarga xos leksik birliklari o'rtasidagi semantik muqobilligini topish muhim jarayon hisoblanadi"[2].

Shundan kelib chiqib, faqat ma'lum xalqning yashash tarziga, dunyoqarishiga, narsalarni nomlashdagi o'ziga xos xususiyatlar boshqa bir millatlarnikidan keskin farq qiladi. Bunday o'ziga xosliklar shu xalqning tafakkur shakli, udumlari, milliy kiyimlari, milliy ovqatlari, urf-odatlari va boshqa xatti-harakatlari bilan boshqa millat va elatnikidan farq qiladi. Buning natijasida esa faqat shu millatga (yoki xalqqa) mansub bo'lgan turli xil tushunchalarini ifodalovchi terminlare yuzaga keladi. Mazkur terminlar ma'no anglatgan tushunchalar boshqa millatlar (yoki xalqlar) tilida uchramaydi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda tarjimashunoslik va tilshunoslikda mazkur terminlarni "xos so'zlar", ya'ni

“realiyalar” deb ataladi[3]. Mazkur xos so‘zlar esa muqobilsiz birliliklarni yuzaga keltiradi.

Xalqar tillari va madaniyatlarini qiyoslashda bir-biriga mos keladigan hamda umuman mos kelmaydigan birliliklar mavjuddir. Xalq madaniyatining ajralmas qismi hisoblangan tilda ham mazkur unsurlarni uchratishimiz mumkin. Qiyoslanayotgan tillar va ularning birliklari o‘ziga xos bo‘ladi. Mos kelmaydigan birliklarga, avvalambor, muqobilsiz birliliklar va aynan o‘sha tilga xos bo‘lgan so‘zlar hamda o‘zga tilda muqobili bo‘lmagan birliklar kiradi[4].

Adabiyotlar tahlili. Muqobili majjud bo‘lmagan birliklar tarjimonda bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Mamlakatimiz tilshunosligida ingliz, rus va o‘zbek tillarida muqobilsiz birliliklar va ularning lingvokulturologik xususiyatlari hamda uning ilmiy-nazariy muammolari M. Galliyeva, O.Mo‘minov, N. Qambarov kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan. Masalan, O. Mo‘minov muqobilsiz birliklarning sinxron hamda og‘zaki tarjimada uchrashi haqida tadqiqot olib borgan bo‘lsa, N. Qambarov ijtimoiy-siyosiy matnlarda uchraydigan muqobili yo‘q birliliklar haqida ish olib borgan. M. Galliyeva esa diniy sohaga doir muqobilsiz birliliklar tarjimasiga doir tadqiqot olib borgan[5]. G. Odilova she’riyat tarjimasidagi muqobilsiz birliliklar tarjimasi ustida izlanishlar olib borgan[6].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola ustidagi izlanish jarayonida asosan qiyosiy solishtirma **metodlardan** foydalанинди. Bundan tashqari maqola ustida ishslash mobaynida distributsion metod turlari (qo‘sishimcha distributsiya, kontrast distributsiya, erkin almashinish distributsiyasi), transformatsion metodlar, komponent tahlil metodi, modellassh metodidan foydalанинди.

Tahlil va natijalar. Realiyalar klassifikatsiyasini chuqur o‘rgangan surxondaryolik olim I. Mirzayev shu sohada faoliyat olib borgan olimlarning fikrlariga qo‘shilgan holda xorijiy matbuot organlari nomlarini, xalq an‘analari, urfodatlar, arxitektura yodgorliklari nomlarini frazeologizmlarda ifodalagan xos ma’noli birliliklarni ham realiyalar sifatida o‘rganishni taklif qildi. Shundan kelib chiqib, muqolsiz birliliklarning asosiy elementi bo‘lgan realiyaga quyidagicha ta’rif berish mumkin: realiya bu faqat muayyan millat va xalqlarga tegishli bo‘lgan moddiy madaniyat ashyolari, tarixiy faktlar, davlat institutlari nomi, milliy va folklor qahramonlarning ismlari, mifologik mavjudotlar va boshqa nomlaridir. Tillarni chog‘ishtirganda ushbu holatlarni anglatuvchi so‘zlarini ekvivalent siz leksikaga kiritadilar. Ekvivalent siz leksika boshqa madaniyatda mavjud bo‘lmagan va qoidaga ko‘ra boshqa tilga bitta so‘z bilan tarjima qilinmaydigan, o‘ziga tegishli til doirasidan tashqarida muqobili bo‘lmagan tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladigan so‘zlar hisoblanadi. Ingliz tilidagi realiyalarni tarjima qilishda odatda tarjimonlar uzundan uzoq ta’riflarga tayanishgan yoki o‘zlarining neologizmlarini taklif qilishlariga tog‘ri keladi. Ekvivalent siz leksika tillarni solishtirganda oson aniqlanadi, chunki unda mazkur til tomonidan vogelikning bo‘linib ketish spesifikasi va madaniyatning o‘ziga xosligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Agar ekvivalent siz leksikaga nafaqat kundalik turmush realiyasi belgilarini, balki davlat-siyosiy tuzumi, xalqning madaniy hayoti va ishlab chiqarish turli sohalarining o‘ziga xos nomlanishini kirtsa, har bir xalq tilidagi realiyalar soni yanada oshadi.

Til va madaniyatlarini solishtirganda anglanadigan (realiyadan tashqari) va anglatuvchi (shakldan tashqari) orasidagi farqni ajratib ko‘rsatish mumkin. Anglanadiganlar o‘rtasidagi farq quyidagi holatlarda kuzatiladi:

1) Bir til jamoasiga xos realiya boshqasida mavjud bo‘lmaydi. Masalan, *drug store - dorixona; Yellow pages - telefon ma’lumotnomasining sariqrang qog’ozli tijorat bo‘limi*.

2) Realiya ikki tilda ham mavjud bo‘ladi, ammo birida u alohida yoki maxsus holda ifodalamanmaydi. Masalan, *clover leaf - beda yaprog’ i ko‘rinishidagi avtoyo‘l chorrahasi*.

Ingliz tilidagi realiyalarga inglizlarga xos bo‘lgan milliy kiyim kechaklar, oziq- ovqat va ichimlik turlari, umumiy ovqatlanish shahobchalar nomlari, pul birliklari va hakazolarni kiritish mumkin. Masalan, *oziq ovqatlar: biscuit, hamburger, sandwich, toast, hot dog, pudding, omlet, sausage, chips, crisp, jam, mash, celery, berkswell; ichimliklar: fizzy drink (soda), yogurt, wine, cola, cocktail*.

Turli xil jamiyatlarda bir-biriga o‘xshash vazifalar har xil realiyalar (turli xil realiyalarning funksional o‘xshashligi) vositasida amalga oshiriladi. Masalan, (American English) hotdog - issiq sosiskali buterbrod; (American English) soda fountain - muqaymoq kafesi.

O‘xshash realiyalar funksional jihatdan farqlanadi. Masalan, *cuckoo’s call “kakkuning sayrashi” amerikaliklarning ishonchiga ko‘ra qiz bolaning turmushga chiqishiga necha yil borligiga ishora qiladi, ruslarda esa inson qancha yil umr kechirishini bildiradi*.

Realiyani tilning boshqa so‘zlar bilan taqqoslaganda uning farqli tomoni shuki, realiya ifodalaydigan predmet, tushuncha, hodisaning bir tomonдан xalq bilan va boshqa tarafdan vaqtning tarixiy bo‘lagi bilan yaqin aloqasi hisoblanadi. Bundan milliy, mahalliy yoki tarixiy koloritning realiyaga xosligi ko‘rinib turibdi.

Xuddi shunday o‘zbek tilidagi realiyalar o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan milliy o‘ziga xoslikni ifoda etuvchi liboslar, milliy taomlar va ichimliklar, joy nomlari ham realiya sifatida o‘zga xalqlar tilida talqin qilinadi[7]. Masalan, Do‘ppi - O‘zbekistonda keng tarqalgan yengil milliy bosh kiyim. Do‘ppi asosan baxmal, ipak, zar bilan tikiladi. Do‘ppi tikuvchi chevar “do‘ppido‘z”, do‘ppi tikish kasbi esa “do‘ppido‘zlik” deyiladi.

Muqobilsiz birliliklarga nafaqat realiyalar balki o‘sha xalqning turmush tarzidan kelib chiqib yaratilgan maqollar, matallar, hikmati so‘zlar ham kiradi. Quyida ana shunday birliliklarning tarjimasiga doir nazariya va misollar ko‘rib chiqamiz.

Maqol va matallar ingliz folklori repertuaridan keng o‘rin olgan bo‘lib, ularda vatanparvarlik, mardlik,adolat, ilmmi sevish, xotin – qizlarga hurmat, yaxshilik, ahillilik, odob – axloq, tarbiya, hurmat izzat, ta’lim, hunar, mehnatsevarlik va shunga o‘xshash bir qancha xususiyatlар o‘rin olgандир.

Masalan, inglizlarda *“One good turn deserves another”* o‘zbekchada *“yaxshilik qilsang, yaxshilik qaytar, yomonlik qilsang – yomonlik”* yoki *“Two heads are better than one”* *“bir kalla – kalla, ikki kalla – tilla”* tarzida tarjim qilish mumkin.

Yuqorida misollardan ko‘rinib turibdiki, har ikkala tilda yuqorida keltirilgan matal va idiomatik birliliklarning barcha komponentlari deyarli bir – biriga mos tushgan. Yana bir misol:

- *Speak of the devil and he will appear - Bo‘rini yo‘qlasang qulog’i ko‘rinadi*.

Ikkala maqoldagi tayanch komponentlar, “devil” so‘zi “bo‘ri” tarjima qilinib, bu bevosita ikki tilde farq qilyapti. “Appears” esa “ko‘rinadi” tarzida tarjima qilinib o‘zarо mos kelyapti. Biror kishi haqida gap ketganda, o‘sha kishi kelib qolsa, inglizlар “Speak of the devil and he will appear” degan maqolni ishlashadi. Lekin ana shu maqolni o‘zbek tiliga “Shayton haqida gapirsang, shayton ko‘rinadi” tarzida o‘girsak, inglizlар va ruslar aytmoqchi bo‘lgan mantiqiy fikr o‘z aksini topmaydi. “Shayton” so‘zi o‘zbek tilida tom ma’noda “mug‘ombir”, “hiylakor” kabi ma’nolarni anglatadi. Ammo o‘zbek tilida “bo‘rini yo‘qlasang, qulog’i ko‘rinadi”, yoki betamiz insonlar haqida gap ketganda, qo‘pol ma’noda aytilganda “eshakni yo‘qlasang, qulog’i ko‘rinadi” degan maqollar bo‘lib, yuqoridaq inglizcha maqolni mana shu

maqollar bilan tarjima qilish mumkin. Inglizcha va o'zbekcha maqollarni qiyosiy tahlil qilsak, ularning bir – biridan farq qilishini ko'ramiz. Inglizcha maqolning obrazli asosini "devil" (shayton) tashkil etgan bo'lsa, o'zbek tilidagi maqolning obrazli asosini "bo'ri", "qulog'i" so'zlarini tashkil etmoqda. Badiiy tarjimaning murakkabligi ham ayan manana shunda, har bir tilning o'zga tillardan farq qildigan o'ziga xos milliyligi mavjud. Demak, tarjimon tarjimaning ijodiy jarayon ekanligini anglashi va o'zga tildagi xar bir ditalga ijodiy yondoshishi lozim.

Xulosa. Muqobili mavjud bo'lmagan birliklar bevosita tarjimondan yuqori bilim talab qiladi, ya'ni tarjimon uni tarjima qilishdan oldin bilishi, o'rganishi kerak bo'ladi.

Xulosa o'mnida shuni aytish mumkinki, tarjimon o'zi o'girayotgan kitob matni ichra chegaralangandir. Muallif ilgari surgan g'oyadan chetga chiqolmaydi, tarjimon shunga qaramay til sohasida ijod qilar ekan, tilning asosiy qurilish materiali so'z bilan ishlaydi. Badiiy adabiyot uchun g'oyatda

muhim bo'lgan ko'rsatkichlar –badiiylik, obraz va obrazlilik, barchasi so'z zamirida yashiringan, so'z orqali reallashadi. Binobarin so'z tanlash badiiy tarjimada birlamchi ahamiyatiga ega.

Shunday qilib, ingliz va o'zbek tillaridagi realiyalarning xususiyatlарини tahlil qilib, ularni tarjima qilishdagi bir necha usullarni ko'rib o'tdik. Bunda asosan qilingan tarjimalar rus tili orqali amalga oshirilganligi sababli, tarjimon o'zbek tiliga amalga oshirgan tarjimasida asliyat matnini chucher tushungan holda tarjima qilishi kerakligini kuzatdik. Muqobilsiz birliklarni tarjima qilish jarayonida tarjimondan nafaqat keng tarjimashunoslik to'g'risida nazariya bilimlardan, balki, o'zga xalqlar turmush sharoiti, madaniyati, urf-odatlari haqidagi bilimlardan ham boxabar bo'lishi talab etiladi. Umuman badiiy asarni tarjima tarjima qilish, tarjimonning shaxsiga, uning intellektiga, uning qobiliyati va tarjimasiga, tarjimashunoslik sohasidan xabardorligiga, tarjima jarayoniga va matn uslubiga ham bog'liq.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar uchun ming kitob" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-380-son qarori, 2023-yil 29-noyabr.
2. Бархударов Л. С. Б. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). М., «Междунар. отношения». 2013. 240 с.
3. Salomov G'. Tarjima nazariysi asoslari. Т.: "O'qituvchi". – 1983. – 230 b.
4. Musaev Q. Tarjima nazariyası asoslari. – T.: Fan, 2005. – 352 b.
5. Галиева Маргарита Рафаэловна ОТРАЖЕНИЕ МИФОЛОГО-РЕЛИГИОЗНОГО СОЗНАНИЯ В ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА. Автореф. дисс. ... док. филол. наук. Ташкент, 2021;
6. Odilova G. K. Ingliz va o'zbek mumtoz she'riyati tarjimalarida adekvatlik muammolari. Filol. fan. nom. diss.. avtoref. - Toshkent, 2011. 28 b.
7. Begmatov E. O'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent: 1985. - 133 b.